

**TALABA YOSHLARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING
MANAVIY MARIFIY YO'NALISHLARI**

Turgunbayev Toxirjon Abdugafurovich

Umumqo'shin tayyorgarlik sikel dotsenti

Annotatsiya: Eng muhim qadriyatlar biri, vatanparvarlik bu davlat hayotiyligining mafkuraviy asosidir. Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi jamiyatdagi potentsial ahamiyatiga ko'ra jamiyatdagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki yoshlik har bir inson uchun eng qulay davr hisoblanadi. Vatanga muhabbatning muqaddas tuyg'usini singdirish. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi deganda o'quvchilarda o'z vataniga muhabbatni bosqichma-bosqich va barqaror shakllantirish tushuniladi, bu esa eng muhim xususiyatlardan biridir.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, g'urur, milliy iftixor, harbiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, Vatanga cheksiz muhabbat, mehnat, sog'lom avlod.

Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiylaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o'z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo'ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko'rish demakdir.

V. G. BELINSKIY

Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar, shuningdek milliy mafkura asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda mafkuraviy tushunchalar bilan tarbiyalanar ekan, ularda dastlab vatanparvarlik ruhini shakllantirmoq muhim. Zero, milliy qadriyatlar halqimizning azaliy an'nalari, udumlari, ona tili, ruhiyatiga asoslanib, ertangi kuniga ishonch uyg'otadi. Insonlar o'rtasida mehr-oqibat, insof, diyonat,adolat, ma'rifat, vatanparvarlik tuyg'ularini paydo qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – uning ajralmas qismi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi metodologiyasi, uning ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig'indisi kiradi.

Yoshlar vatanparvarlik tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirish, ularni yurt xizmatiga, o'z Vatani -O'zbekiston Respublikasini himoya qilishdagi burchlarini bajarishga hartomonlama tayyorlash -o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir. Shu o'rinda, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovni quyidagi so'zlarini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir: «Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustivor bo'lmog'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak».

Bu muqaddas g'oyalar, millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, harbirimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak».

Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'llimizdan hechqanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi.

Bu buyuk g'oyalar harbirimizni qonimizga, qalbimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas boylik – muqaddas meros bo'lib o'tishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentini ushbu so'zlari bizlarga «Vatanparvarlik» so'zi qanday mazmunga, mohiyatga ega ekanligini, «Vatanparvar» qanday bo'lishi kerakligini to'la-to'kis ochib beradi.

Biz «Vatanparvar», «Millatsevar» degan so'zlarni eshitganimizda beixtiyor ko'z oldimizda buyuk ajdodlarimiz sohibqiron Amir Temur, Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi va Namozbotir qiyofalari gavdalanadi.

Yaqin o'tmishimizdan, sho'rolar hukumati vaqtida yashab o'tgan millatimizning asil o'g'lolnari Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon va boshqa buyuk siymolar oldida bosh egamiz. Ularning vatanparvarligi, jasurligi, o'zbek xalqining yorqin kelajagi uchun jonlarini fido etganliklari, ularni millat ravnaqi uchun yashab, kurashib o'tgan hayotlari bizlar uchun bir hayot maktabi- vatanparvarlik maktabi bo'lib qoladi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytib o'tganlaridek, har bir avlod el yurtining tarixini va obro'ini, o'zining farzandlik muhabbatni va e'tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi.

Bizning bugungi eng buyuk vazifamiz va muqaddas burchimiz O'zbekiston tarixidan o'zimizga munosib sahifa ochish va uni avlodlarimiz uchun ibrat bo'ladigan oliy janob va savobli ishlar bilan to'ldirishdir.

Manashu so'zlar, buyuk maqsadlardan kelib chiqqan holda bizlarham o'z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak. Bizlarni asosiy vazifamiz- manashu mustaqil Vatanni jonjonidan seuvuvchi, uning ravnaqi va ozodligi, xalqi uchun jasoratga, kerak bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lgan, elimdeb, yurtim deb yonib yashaydigan mard o'g'lolnarni, o'zbek vatanparvarlarini tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Bu tarbiya, albatta umumiy tarbiyani, ya'ni, axloqiy, ma'naviy, mehnat, estetik, jismoniy turlari bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Oliy talim muassasalarida olib boriladogan mashg'ulotlarda, vatanparvarlik va ommaviy mudofaa tadbirlarida o'quvchi yoshlar Vatan oldidagi burchlari xizmatlari va Vatanimiz himoyasi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtiradilar. Ular bu mashg'ulotlar va tadbirlar davomida Vatanparvarlik tarbiyasini asoslaridan dastlabki ma'lumotlarni oladilar. Yoshlar O'zbekiston Respublikasi tarixini, uning bugungi kundagi Vatanimiz mustaqilligini himoya qilishdagi faoliyati, Vatan

parvarlik tuyg'ulari va ularni vazifalari, Ona yurtimiz O'zbekistonga xizmat qilish tartiblari va boshqa ko'p zarur bo'lgan bilimlarni chuqur o'rganadilar.

Shunday qilib, Oliy talim muassasalari mashg'ulotlari va ommaviy mudofaa tadbirlari yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni Vatan ravnaqi va taraqiyoti yo'lida tayyorlash dasturining asosiy o'zagini tashkil etadi.

Barchajtimoiy-siyosiyfaoliyatsingari, vatanparvarlik tarbiyasi ishida ham ma'lum bir tizim, shakliy uslub mavjuddir.

U aniq bir vazifalarni, shakl va uslublar mazmunini, vositalarni, shuningdek, o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi davlat va jamoat, korxona, tashkilot va muassasalarini o'z ichiga oladi.

Bu tizim, shakl, birinchidan, kompleks xususiyatga ega, ya'ni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish barcha o'quv-tarbiya muassasalarining vazifasidir.

Ikkinchidan, u uzlucksizdir, chunki inson hayotining barcha davrlarida o'z ta'sir kuchida bo'ladi.

Uchinchidan, u to'liq bir shakldir, chunki u tarbiyaning barcha turlariga hamda yurt va xalqning birligiga tayanadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ma'naviy-axloqiy va ruhiy (psixologik) tayyorgarlik;

harbiy-texnik tayyorgarlik;

amaliy-jismoniy tayyorgarlik.